




**XORAZM VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI**



**XORAZM VILOYATINING
SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI**

*2022- YIL YANVAR-APREL
(DASTLABKI MA'LUMOT)*



Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2022- yil yanvar-aprel oylarida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 5 218,3 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 115,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelgan va uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,5 % ni tashkil etdi.




B

Tog'-kon sanoati va
ochiq konlarni ishlash




C

Ishlab chiqaradigan
sanoat



D



Elektr, gaz, bug' bilan
ta'minlash va havoni
konditsiyalash



E

Suv bilan ta'minlash;
kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va
utilizatsiya qilish


Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 9,3 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 13,5 % ga o'sishi kuzatildi, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati – 76,8 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning – 4,8 % ga kamayishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,3 mlrd so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,006 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Yanvar-aprel

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd so'm

Yanvar-aprel

FHI,% da



2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5 036,5 mlrd so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 96,5 % ini tashkil etdi.

2021- yil yanvar-aprel


95,9 %

2022- yil yanvar-aprel

96,5 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,11%ni (2021- yilning yanvar-aprel oylarida – 0,15 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 42,3 % (39,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 2,9 % (3,1 %) va quyi texnologiyali – 51,3 % (52,7 %)ni tashkil etdi.

■ 2022- yil ■ 2021- yil




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 43,3 % (2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 121,0 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,2 % (2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 134,8 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 23,3 % (2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 116,0 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 26,2 % (2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 112,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,4 % (2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,7 %) ni tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da *

Paxta tolasi




Paxta chigiti




Paxtadan yigirilgan ip






Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz)



Maxsus yengil avtomobillar



**O'simlik yog'i
(tozalangan)**

**Yumshoq bug'doy
va spelta uni**

Xo'jalik sovuni


2022- yilning yanvar-aprel oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda paxta tolasi 25 367,1 tonna (2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 0,5 % ga kamaygan), paxta chigiti 55 789,9 tonna (2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 10,2 % ga oshgan), 10 297,1 tonna paxtadan yigirilgan ip (5,9 % oshgan), 23 534 dona yengil avtomobil (maxsus yengil avtomobillarsiz) (33,2 % oshgan), 5 199 dona maxsus yengil avtomobil (31,7 % ga oshgan), o'simlik yog'i 5 422,2 tonna (39,0 % kamaygan), xo'jalik sovuni 1 093,5 tonna (40,2 % kamaygan) hamda 27 911,7 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (5,7 % ga kamaygan) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-aprel	2022- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz),dona	17666	23534	5868
Maxsus yengil avtomobillar, dona	3949	5199	1250
Paxtadan yigirilgan ip,tonna	9728,0	10297,1	569,1
Paxta tolasi,tonna	25496,8	25367,1	-129,7
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	29585,5	27911,7	-1673,8
O'simlik yog'i (tozalangan), tonna	8890,9	5422,2	-3468,7


Yanvar-aprel, yirik korxonalar bo'yicha

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2020- yil yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,3 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 70,4 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 24,4 %ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 11,3 %ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 1 227,0 mlrd so'mni tashkil etdi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati




2020- yil yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 96,0 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,7 %ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 115,7 %ni va ishlab chiqarish hajmi 138,4 mlrd so'mni tashkil etdi.

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


2020- yil yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 25,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 106,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 23,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 16,9 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1 198,9 mlrd so'mni tashkil etdi.



Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2020- yil yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 108,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-aprel oylariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 217,6 % ni va ishlab chiqarish hajmi 37,1 mlrd so'mni tashkil etdi.



Asosiy farmasevtika mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2020- yil yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida asosiy farmasevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,002 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 20,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida asosiy farmasevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 82,1 % ni va ishlab chiqarish hajmi 5,8 mlrd so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2020- yil yanvar-aprel oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 96,6 %ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 %ni, fizik hajm indeksi 126,3 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 15,4 mlrd so'mni tashkil etdi.




Elektr uskunalar ishlab chiqarish

2020- yil yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 100,8 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 %ni, fizik hajm indeksi 214,2 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 14,2 mlrd so'mni tashkil etdi.



Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish




2020- yil yanvar-aprel oylarida boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,4 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 52,7 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,7 %ni, fizik hajm indeksi 111,2 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 86,6 mlrd so'mni tashkil etdi.

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish


2020- yil yanvar-aprel oylarida avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 47,3 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 122,3 %.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 41,7 %ni, fizik hajm indeksi 122,6 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2 099,1 mlrd so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 148,3 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,8 % ini) tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 13,5 %ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-aprel	2022- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	55,2	76,9	21,7
Issiqlik energiyasi, ming gkal	47,6	45,1	-2,5
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, ming so'm.	597 451,0	608 048,0	10 597,0

Yanvar – aprel, yirik korxonalar bo'yicha

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 33,1 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 %ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-aprel	2022- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, <i>ming so'm</i>	1406147,0	2066877,0	660730
Tabiiy suv; suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar, <i>ming so'm</i>	35227184,0	37334050,0	2106866
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, <i>ming so'm</i>	7556693,0	6992164,0	-564529

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 47,0 % ga, tabiiy suv; suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 6,0 % ga oshganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3 247,5 mlrd so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 125,1 %ni, uning jami sanoatdagi ulushi 62,2 %ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil
yanvar-aprel

41,3%

2022- yil
yanvar-aprel

38,0%

Nooziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil
yanvar-aprel

58,7%

2022- yil
yanvar-aprel


62,0%

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib 74,2 %ni , Urganch shahrida 10,1 %ni va Urganch tumanida 3,1 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (125,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Tuproqqal'a tumanida (129,8 %), Gurlan tumanida (154,6 %), Yangibozor tumanida (159,3 %) hamda Urganch tumanida (192,7 %) qayd etildi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulush Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib 74,2 %ni , Urganch shahrida 10,1 %ni va Urganch tumanida 3,1 %ni tashkil etdi.




2 596,5 mlrd so'm

2021- yil yanvar-aprel

3 247,5 mlrd so'm

2022- yil yanvar-aprel



Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi

2021- yil

104,8 %

2022- yil

125,1 %

o'sish sur'ati

mlrd so'm

Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib, 85,3 %, shuningdek, Urganch shahrida 4,8 %ni, Xonqa tumanida 1,6 %ni tashkil etdi.

1 523,6


mlrd so'm

2021- yil yanvar-aprel

2 013,7

mlrd so'm

2022- yil yanvar-aprel



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarning ulushi

62,0 %

101,7 %

2021- yil

132,2 %

2022- yil





Xorazm viloyati	132,2	2013,7
Urganch shahri	105,0	97,1
Xiva shahri	88,4	20,2
Bog'ot tumani	122,8	13,2
Gurlan tumani	222,0	28,5
Qo'shko'pir tumani	120,7	10,7
Urganch tumani	143,7	19,9
Hazorasp tumani	111,9	12,3
Tuproqqal'a tumani	133,5	1717,2
Xonqa tumani	139,2	32,2
Xiva tumani	103,3	13,2
Shovot tumani	105,8	11,5
Yangiariq tumani	153,4	17,4
Yangibozor tumani	301,0	20,3

o'sish sur'ati

mlrd so'm

Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulush Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib, 56,0 %ni, shuningdek, Urganch shahrida 18,8 %ni, Xonqa tumanida 3,9 %ni tashkil etdi.



o'sish sur'ati
mlrd so'm

Xorazm viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib, 55,1 %, shuningdek, Urganch shahrida 13,9 %ni, Urganch tumanida 5,8 %ni, Gurlan tumanida 4,0 %ni tashkil etdi.

Xorazm viloyati

2021- yil

3 894,9 mlrd so'm

2022- yil

5 218,3 mlrd so'm



2021- yil

109,6 %

2022- yil

115,5 %

Xorazm viloyati	115,5	5218,3
Urganch shahri	104,8	725,1
Xiva shahri	107,2	63,5
Bog'ot tumani	108,1	106,4
Gurlan tumani	144,5	210,2
Qo'shko'pir tumani	97,6	143,5
Urganch tumani	123,2	303,0
Hazorasp tumani	98,6	129,5
Tuproqqal'a tumani	116,8	2874,4
Xonqa tumani	105,6	184,4
Xiva tumani	108,8	81,4
Shovot tumani	106,8	120,1
Yangiariq tumani	118,4	126,4
Yangibozor tumani	104,3	150,4

FHI, % da

mlrd so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Tuproqqal'a tumanida (50 707,2 ming so'm), Urganch shahrida (4 932,0 ming so'm) aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2 707,3 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda.



o'sish sur'ati
ming so'm

Xorazm viloyati

2021- yil

2 054,2 ming so'm

2022- yil

2 707,3 ming so'm



108,1 %


2021- yil

113,6 %

2022- yil

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 779,6 mlrd soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 14,9 %ni tashkil etdi.



ulushi, % da
mlrd soʻm

Xorazm viloyati

2021- yil

569,3 mlrd soʻm

2022- yil

779,6 mlrd soʻm



14,6 %

2021- yil

14,9 %

2022- yil

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1 684,9 ming so'm bo'lgani holda, Tuproqqal'a tumanida 42 487,3 ming so'mni, Urganch shahrida 2 242,1 ming so'mni tashkil etdi.

Xorazm viloyati

2021- yil

1 369,4 ming so'm

2022- yil

1 684,9 ming so'm



103,3 %

2021- yil

123,0 %

2022- yil

Xorazm viloyati	123,0	1 684,9
Urganch shahri	96,7	2 242,1
Xiva shahri	92,1	382,6
Bog'ot tumani	104,3	246,5
Gurlan tumani	152,0	368,6
Qo'shko'pir tumani	109,0	142,2
Urganch tumani	188,8	493,8
Hazorasp tumani	104,0	152,5
Tuproqqal'a tumani	125,9	42 487,3
Xonqa tumani	113,1	421,1
Xiva tumani	101,7	203,9
Shovot tumani	100,8	218,4
Yangiariq tumani	122,2	274,1
Yangibozor tumani	156,8	399,1

o'sish sur'ati



ming so'm

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari



Bugungi kunda viloyatda 4 354 ta sanoat korxonasi faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 827 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 19,0 %) Urganch shahriga, 508 tasi (11,7 %) Urganch tumaniga, 404 tasi (9,3 %) Qo'shko'pir tumaniga, 387 tasi (8,9 %) Xonqa tumaniga va 363 tasi (8,3 %) Xiva shahriga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan



Jami faoliyat yuritayotgan



yangi tashkil etilgan

faoliyat yuritayotgan